

ESTRADA IJROCHILIGI VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA
INSONPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH

Mamatxo‘jaev Azizbek

*Andijon ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi
estrada ijrochiligi bo‘limi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Estrada ijrochiligida vatan madhi qo‘shiqlarining inson kamolotini shakllantirishda musiqadan foydalanish shart-sharoitlarini o‘rganish, o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositasi sifatida estrada qo‘shig‘idan foydalanish usullarini o‘rganish masalalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘z: pyesa, spektakl, bastakorlik ijodiyoti, raqsbob usullar, musiqiy estrada.

Annotation: in the performance of the Variety, the issues of studying the conditions for the use of music in the formation of human perfection of songs of the motherland madhi, studying the methods of using the variety song as a means of educating students and young people in the spirit of patriotism are highlighted.

Keyword: play, performance, composition creativity, dance-pop methods, musical variety.

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonun ijrosini ta‘minlash, mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yoshlarni madaniyat, san‘at va sportga keng jalb etish, ularning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish kabi dolzarb vazifalarini o‘z ichiga olgan 5 muhim tashabbusni amalga oshirish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimizda ilk bora O‘zbekiston yoshlari forumi o‘tkazildi, unda O‘zbekiston Prezidenti ishtirok etdi va nutq so‘zladi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoev “Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini sifatida yuksak qadrlayman” degan g‘oyani ilgari surdi. Shunday ekan, har bir sozanda musiqa asarini o‘rganish, uni xalq e‘tiboriga havola etish uchun o‘zlashtirayotgan asarini chuqur tushunib yetmog‘i, bu yo‘lda tinmay ijodiy izlanmog‘i lozim. Zero, sozanda san‘ati ham xalqchil, ham zamonaviy, ham yuksak professional darajada bo‘lgandagina tinglovchilar tomonidan munosib olqishlanadi va bunyodkor xalqimiz ko‘nglini rom etadi. Buning uchun madaniy merosimiz tarixi, ijrochi sozandalar, ustozlar ijodi bilan tanishish, ibrat olish zarur.

Estrada tushunchasi – lotincha tomosha ko‘rsatish uchun maxsus ko‘tarilgan, joy ya‘ni sahna ma‘nosini anglatadi. XIX asr oxirlariga kelib bu tushuncha yakka tartibda, kichik shaklda ijro qilish ma‘nosini anglatib boshladi. Dramaturg pyesa, rejissyor spektakl, aktyor obraz yaratadi. Uchchala jarayon bir kishida mujassam bo‘lib, u kichik shakldagi tomosha yaratsa, nomer deb ataladi. Tomosha – nomer yaratish san‘ati XX

asrdan boshlab Estrada deb atala boshlandi. Nomer yaratgan va uni san'at darajasida namoyish qilgan shaxs estrada aktyori deb nomlana boshlandi¹. Ma'lumki, XX asr o'zbek musiqa san'atida keskin yangilanishlar davri bo'ldi, "noan'anaviy" bastakorlik ijodiyoti hamda yangi konsert shakllari yuzaga keldi. Shu munosabat bilan musiqiy madaniyatga ham "estrada" tushunchasi kirib keldi.

Shunday qilib, "estrada" so'zining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda, ya'ni uning keng ma'noda, umumiy "sahna san'ati" tushunchasi sifatida va tor ma'noda "musiqiy estrada" ya'ni maxsus tayyorgarligi bo'lmagan tinglovchi osongina tushuna oladigan (jo'n) xordiq chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi shaklan va mazmunan oddiy, tez esda qolarli kuy va, asosan, raqsobop usullar (zaminida ma'lum qadar "bit", ya'ni jadal usul)ni mujassam etgan musiqa namunalariga qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, bu o'rinda "estrada" istilohi xususiy tushuncha sifatida namoyon bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ushbu kesimdagi "Estrada"ga oid "musiqiy estrada" tushunchasini qo'llab, uning zaminida "jadal usul"ga asoslangan barcha sahnaviy musiqa janrlarining majmuini anglash maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, "Estrada" so'zining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda, ya'ni uni keng ma'noda, umumiy "sahna san'ati" tushunchasi sifatida va tor ma'noda "musiqiy estrada", ya'ni maxsus tayyorgarligi bo'lmagan. Tinglovchi osongina tushuna oladigan (jo'n), hordiq chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi shaklan va mazmunan oddiy, tez esda qolarli kuy va, asosan, raqsobop usullar (zaminida ma'lum qadar "bit", ya'ni jadal usul)ni mujassam etgan musiqa namunalariga qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaratilgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, musiqa inson ruhiy² olamiga, ruhiyatiga eng tez, eng faol va bevosita ta'sir etishi bilan ajralib turadigan eng muhim san'at turiga kiradi. Musiqa bu ilohiy bir kuch bo'lib yoki Alloh tomonidan yuborilgan, singdirilgan ta'sir etuvchi ulkan kuchga ega bo'lib, insonning qalban hissiy tuyg'ularini his etishga qodirdir.

Musiqaning o'ziga xos xususiyati his-tuyg'ular, ruhiy hislatlarning nozik tomonlarini ifodalash bilan birga inson ichki olamiga kuchli va chuqur ta'sir etishidir. Shuning uchun ham musiqaning ifodaliligi qadim zamonlardan tarbiya vositasi ekanligi bizga malum. Musiqaning ta'lim-tarbiyaviy va ilmiy-pedagogik asoslarining ahamiyati shundaki, u inson qalbini kamol toptirish va yuksaklarga ulug'lash

¹Умаров М. Эстрада ваоммавий томошалар тарихи. Т.: "Янги аср авлоди". 2009й. 185 –бет.

² А.Мансуров, Д.Каримова. Musiqa 5-sinf. Т. G'.G'ulom, 2004 yil.

xususiyatiga egadir. Musiqa tom manoda insonga va insonlarga bo'lgan insoniy munosabat asoslarini shakllantiradi.

Bu borada O.A.Apraksina shunday deb yozgan edi. “Albatta musiqa, musiqiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi, ammo bu ishning ahamiyati ikki sababga ko'ra muhimdir”. Birinchidan – bu sohadagi ijodiy qobiliyat boshqa sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan – musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning o'zi ham katta ahamiyatga ega, chunki musiqaning ko'zga ko'rinmas sehrli olami o'quvchi-yoshlarning ruhiy olamini boyitadi.

Shunday ekan, o'quvchilar maktabni tamomlaganlaridan keyin ham keyingi musiqiy rivojlanishlari maktabda olgan ilk bilim va ko'nikmalariga jumladan to'plagan malakalari asosida musiqiy hayotning voqealarini idrok qilish va baholab berishlari mumkin. O'quvchi-yoshlarni musiqiy ohanglar, qo'shiqlar ta'siri ruhida tarbiyalash xalq musiqiy-madaniyatining asosidir. Shu o'rinda mashhur pedagog va olim V.A.Suxomlinskiy musiqiy tarbiyasiz bolaning to'laqonli aqliy rivojlanishi mumkin emas, musiqa insonlarga tabiat ato etgan ahloqiy munosabatlar, mehnat go'zalligi tomon yo'l ochadi. Insonlarda musiqa tufayli nafaqat atrof, olam, balki o'zidagi go'zallik haqida ham tasavvur uyg'onadi, deb hisoblagan edi. Uning fikricha, agar bola ilk yoshida musiqiy asar go'zalligini qalban idrok etsa, bola ohanglarda insoniy tuyg'ularning xilma-xil, rango-rang belgilarini his qila olsa, o'qituvchi, tarbiyachi, uslubchilar tomonidan har xil, turli xil uslubiy ishlar amalga oshirilsa, u musiqa deb nom olgan madaniyatning hech qanday vosita va usullari bilan erishib bo'lmaydigan pog'onasiga ko'tariladi.

Shunday qilib, estrada vokal ijrochiligi yordamida o'quvchi-yoshlarni axloqiy va vatanparvarlik kuy va qo'shiqlardan yetarli darajada foydalangan holda, shuningdek, tarbiyani amalga oshirishning turli xil uslublaridan yetarlicha ijobiy foydalanilsa maqsadga muvofiq ishlarni amaliy ijrosi ta'minlangan bo'ladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Е. С. Курдина. Формирование навыков самостоятельной деятельности у начинающих вокалистов в детской эстрадной студии. Екатеринбург 2019. 11-ст.
2. Умаров М. Эстрада ваоммавий томошалар тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2009й. 185 –бет.
3. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. - Toshkent: Yangi asar avlodi. 2009. - B. 206.
4. A.Mansurov, D.Karimova. Musiqa 5-sinf. T. G'.G'ulom, 2004 yil.
5. Аманова Н. Ўзбек эстрада муסיқасининг миллий ўзига хослиги жанрла ривож кесимида: санъат. фан. номзод. дис. – Тошкент, 2019. – 150 б